

MOLIYA TIZIMI VA FANDAGI O'RNI

Nasimova Yulduz Baxriddin qizi

Toshkent moliya institute Bank ishi fakulteti 3-kurs BIA-82 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'kidlash joizki, amaliy ish jarayonida turli pul fondlaridan shakllanadigan va foydalaniladigan moliyaviy munosabatlarning turli sohalari majmuiga moliya tizimi deyiladi. Unga boshqacha ta'rifberish ham mumkin: davlat va korxonalarining pul fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish borasidagi shakl va metodlar tizimiga moliya tizimi deyiladi. Bu haqida batafsil quyida keltirilgan.

Kalit so'zlar: moliya tizimi, pul fondlari, kreditor, garant (kafil), pul sektori, davlat byudjeti, moliyaviy siyosat.

"Moliya tizimi" tushunchasi keng ma'nodagi "moliya" tushunchasining taraqqiyoti natijasidir. Mamlakatda bozor islohotlarining amalga oshirilishi va mohiyatiga ko'ra butunlay yangi bo'lgan iqtisodiy va moliyaviy siyosatning hayotga tatbiq etilishi moliya tizimining sohalari va bo'g'inlariga nisbatan ob'ektiv ravishda yangicha yondashuvni taqazo etdi.

Davlat moliya tizimi "Davlat moliyasi va mahalliy moliya" sohasining o'ziga xos bo'g'ini hisoblanadi. Uning o'ziga xosligi davlatning markazlashtirilgan fondlariga mablag'larni jalb qilish bo'yicha moliya-kredit munosabatlariga doir alohida shaklidan iborat. Bunda davlat, asosan, mablag'larni qarzga oluvchi va shuningdek, kreditor va garant (kafil) sifatida ham maydonga chiqadi. Davlat kreditida miqdoriy jihatdan mablag'larni qarz oluvchi sifatida davlat faoliyati ustunlik qiladi. Davlatning kreditor sifatidagi operatsiyalari, ya'ni davlat yuridik va jismoniy shaxslarga ssudalar taqdim qilganda yoki kafil bo'lganda, ancha tor bo'ladi. Shunga qaramasdan, bozor iqtisodiyoti sharoitida byudjetdan moliyalashtirish ham qaytaruvchanlik va to'lovchanlik sharti bilan amalga oshirilsa, keng rivoj topishi mumkin.

Moliya tizimi - iqtisodiyot pul sektorining bir qismi, moliya amaliyoti. Moliya tizimi faqat moliya munosabatlarini emas, balki moliyaga taalluqli siyosiy, tashkiliy munosabatlarni ham qamrab oladi. Bu tizim tarkibiga quyidagilar kiradi:

- moliya obyektini hosil etuvchi pul fondlari yoki moliya resurslari;
- korxonalar, xonadonlar, davlat idoralari va nodavlat tashkilotlaridan iborat moliya munosabatlarining subyektlari - ishtirokchilari;
- moliya mexanizmi, ya'ni moliya munosabatlarida qo'llaniladigan va pul bilan bog'liq vositalar (foyda, zarar, rentabellik, likvidlik, byudjet, byudjetdan tashqari

fondlar, subsidiya, subvensiya, dotatsiya, sanatsiya, moliya normativlari, moliyaviy sanksiya va boshqalar);

- moliya institutlari va davlatning moliya idoralari (moliya kompaniyalari, moliya jamg'armalari, moliya vazirligi, uning mahalliy bo'linmalari, soliq idoralari, g'aznachilik xizmati, soliq politsiyasi va boshqalar);
- moliya bozori - fond bozori, sug'urta xizmati bozori, valyuta bozori;
- moliya siyosati - iqtisodiyot subyektlarining moliyaga oid yo'l-yo'riqlari va xatti-harakati.

Mamlakatning moliya tizimida davlat byudjeti markaziy o'rin egallaydi. Markazlashtirilgan pul fondini shakllantirish orqali davlatning qo'lida katta hajrdagi moliyaviy resurslar to'planadi va ular unumdavlat ehtiyojlarini qondirishga sarf etiladi. Davlat byudjeti umumdavlat manfaatlarini inobatga olgan holda ustuvor yo'nalishlar uchun moliyaviy resurslarni jamlashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ustuvor yo'nalishlar uchun davlat byudjeti yordamida moliyaviy resurslarni jamlash bir necha usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Ayrim hollarda, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlash maqsadida byudjet assignovaniyalarining hajrni oshiriladi. Boshqa hollarda esa, o'sha sektorlardan mablag'larni davlat byudjetiga olishda qulay sharoit yaratiladi.

Davlat byudjeti iqtisodiyotning alohida tarmoqlari rivojlanishida asosiy manba rolini ham o'ynashi mumkin. Masalan, ilmiy-texnika taraqqiyoti asosida milliy iqtisodiyotda yangi tarmoq vujudga kelayotgan bo'lsa, uning paydo bo'lishini hozirgi sharoitda byudjetdan moliyalashtirishsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Faoliyat ko'rsatayotgan sub'ektlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda byudjet katta ahamiyat kasb etadi. Turli ob'ektiv va sub'ektiv omillarning ta'siri ostida ayrim sub'ektlarning o'z moliyaviy resurslari ulaming sog'lom faoliyat ko'rsatishi uchun yetarli bo'lmay qolganda chetdan mablag' jalb qilishga ehtiyoj tug'iladi. Bunday sharoitda davlat byudjeti tartibga soluvchi manba sifatida maydonga chiqishi mumkin. Albatta, bunday hollarning barchasida davlat byudjeti mablag'lari sub'ektlarning o'z manbalari, tarmoq ichidagi resurslar, bank kreditlaridan so'ng oxirgi tartibga soluvchi manba sifatida foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Moliya: Darslik. T.S. Malikov, O.O. Olimjonov; / – T.: “Iqtisod-Moliya” 2019. – 800 b
2. I.K.Ochilov, J.E.Qurbonboyev "Moliyaviy hisob". O'quv qo'llanma. "IQTISOD MOLIYA", 2017-y.
3. A.Ibragimov va boshqalar "Moliyaviy va boshqaruv hisobi". O'quv qo'llanma. "IQTISOD -MOLIYA", 2018-y.
4. Akhmedova, N. (2022). DEFINITION OF THE CONCEPT OF" ALGORITHMIC COMPETENCE". Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(12), 140-143.
5. Машарипов, В. У., Мирвалиева, Н. Р., & Абдуллаев, У. М. (2023). Местный иммунитет и специфическая сенсбилизация к антигенам бактерий у больных тонзиллитом. Science and Education, 4(2), 392-400.